

ANTIK DAVR TANGALARI TARIXIY MANBA SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada numizmatika sohasining asosi bo'lgan antik davr tangalari va ularning xususiyati, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlardagi roli haqida fikrlar keltirib o'tilgan. Maqolada Markaziy Osiyodan topilgan tangalarning savdo muomalasidagi nufuzi haqida ham fikr yuritilgan. Shu bilan birga, tangalar zarb etilgan joy nomlari va hukmdorlar ismi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: numizmatika, Lidiya, kushonlar, draxma, M.Masson, Choch tangasi, Yevkratid tetradxarmasi, "Noma'lum shoh" tangasi.

АНТИЧНЫЕ МОНЕТЫ КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК

Аннотация. В этой статье представлены мнения о монетах древности, которые являются основой области нумизматики, и об их свойствах, роли в социальных и экономических отношениях. В статье также рассматривалось влияние монет, найденных в Центральной Азии, в торговом обращении. В то же время на монетах были указаны названия мест чеканки и имена правителей.

Ключевые слова: нумизматика, Лидия, кушаны, драхма, М.Массон, монета Чоч, тетрадрахма Евкратиды, монета «Неизвестного царя».

"Numizmatika" atamasi o'rta asrlardan e'tiboran tanga pullar haqidagi fanning nomi sifatida ishlatila boshlandi. U tanga va qog'oz pullarning, orden va medallarning yuzaga kelish tarixini o'rganadi, shu asosda fanning turli sohalariga, jumladan tarix va arxeologiya, siyosiy iqtisod, tilshunoslik va san'atshunoslikka oid masalalarni hal etish ishiga yaqindan yordam beradi.

Osiyo va Afrikaning ko'pgina qadimiy xalqlari pulning eng sodda formasi - chig'anoqlardan uzoq vaqt mobaynida foydalanib kelishdi. Yaponiya, Xitoy va Hindiston mamlakatlarida ham chig'anoqlar pul sifatida ishlatilgan. F.Engels qayd qilib o'tganidek: "...hayvonlar hamma tovarlarga baho qo'yishda vosita xizmatini bajaradigan va hamma yerda mamnuniat bilan ayirboshlanadigan tovarga aylandi, -xullas, hayvonlar pul funksiyasini bajara boshladi va shu bosqichdayoq pul rolini o'ynadi".

Yunon-Baqtriya davlati davrida tangalar O'rta Osiyoning faqat yunon aholisi orasidagina yuritilgan, chunki bu paytda tub aholi hali pul-tovar muomalasi yuritishga ulgurmagan edi, - deb hisoblaydi tangashunos olim E. Zeymal. Yunon-Baqtriya podsholigining tanga sistemasi standartga asoslangan edi, tangalar asosan, kumush va misdan, ba'zan esa tillodan zarb etilar edi. Ular orasida Yevkritning 20 staterli (160 gr) oltin tangalari, ya'ni antik dunyo davrining eng yirik oltin tangalari mavjud. Bunday tangalardan ikkitasi haqida ma'lumot bor. Biri A.Semzovning fikriga ko'ra, Buxoro amiri xazinasida saqlangan, ikkinchisi Parijda saqlanadi. Yunon-Baqtriya kumush tangalari, asosan, bir andozada bo'lib o'ng tomonida hukmdor podshoning, qarshisida esa u o'ziga pir qilib olgan ma'budlarning, masalan Zevs, Gerakl, Poseydon, Apollon, Dioskurlarning tasviri tushirilgan edi. Aleksandr, Antiox, Diodit va Evtidemlar sharafiga bag'ishlab medal-tangalar bironta ulug' zot, sharaflil sana, qimmatlilik yoki qaxatchilik, ochlik yillari munosabati bilan zarb etilgan tangalar ham diqqatga sazovor bo'lgan. Bunday metal tangalardan biri – Evtidem sharafiga Antimax tomonidan zarb etilgan tanga Panjikentda, Diodit va Yevkratid sharafiga Agafokl tomonidan chiqarilgan uchta tanga Buxorodan topilgan daxma ichidan chiqqan.

Kushon mis tangalari ham hayratlanarli va sirli bo'lib, ularda hukmdorning ismi yo'q, faqat mansabi va laqabini anglatuvchi "Shohlar shohi Buyuk xaloskor" degan yunon yozuvi bor, xolos.

56 Ilmda "Noma'lum shoh" yoki "Soter Megasning" tangalari nomi bilan yuritiladigan bu chaqalar O'zbekiston va Tojikiston janubida olib borilgan arxeologik qazishmalarda juda ko'plab uchraydi. M.Masson va boshqalarning fikricha, ularni Kudzula Kadfiz zarb etgan, boshqa tadqiqotchilar fikricha esa, tangalarni Vima Kadfiz chiqargan.

O'zbekiston hududidan topilgan birinchi numizmatik yodgorlik Eron shohlari – Ahamoniylar davriga mansub. Gerodotning yozib qoldirgan ma'lumotlariga ko'ra, So'g'd, Xorazm, Baqtriya Ahamoniylarga talant, ya'ni pul birligida o'lpon to'laganlar. Lekin o'lponni naqd pul tarzida emas, balki ana shu pul miqdoriga teng bo'lgan natural tovarlar bilan to'lab kelingan bo'lishi ham mumkin. O'zbekiston hududida XIX asr oxiri XX asrning boshlarida kolleksionerlardan Ahamoniylarning qator dirik va sikllarini sotib olinishi, Ahamoniylar davriga mansub tilla hamda kumush pullarni So'gd va Baqtriyaga kirib kelganidan dalolat beradi.

O'rta Osiyo Aleksandr Makedonskiy imperiyasi tarkibiga qo'shib olingach, umumiy oldi-sotdi savdosida pul joriy etila boshlandi. Chunonchi, Baqtriyada Salavkiylar davrida hukmdorlar tomonidan pullar chiqarila boshlandi. Mil. avv. 293-280-yillar mobaynida Baqtriya davlatining sharqiy viloyatlari noibi Salavkiyning o'g'li Antiox 1-marta pul chiqarishga asos soldi. Yunon madaniyatining yirik vakillari bo'lgan Salavkiylar tanga pullarini grek namunasi bo'yicha zarb etdilar, xususan, grek tilidagi yozuvlar va podshohning aksi tushirilgan tangalar chiqara boshladilar. Baqtriyada chiqarilgan pullarning nomi ham yunoncha edi. Tilla pullar stater, kumush tangalar tetradxarma, dxarma, yarim dxarma deb atalgan. Kundalik savdoda foydalanish uchun mo'ljallangan mis tangalar ham chiqarilgan. Grek-Baqtriya podsholigi pullari ko'pchilik hollarda Salavkiylar an'analarini davom ettirgan. Tanganing yuza tomonida podsho rasmi, orqa tomonida esa grek xudolaridan birining rasmi ifodalangan. Grek-Baqtriya tangalari medal yasash san'atining go'zal namunalari hisoblanadi. Kichkina yumaloq doiraga tushirilgan podsholarning rasmi bizning davrgacha yetib kelgan o'sha hukmdorlarning yakka yu-yagona asl rasmlari hisoblanadi. Bu rasmlar tarixiy shaxslarning qo'lyozma manbalarda ifoda etilmagan qiyofalari va his-hayajonlarini aks ettiradi. Grek-Baqtriya kumush tangalari xazinasi Qashqadaryo vodiysining Kitob shahri atrofidan topildi. Milodiy I – III asrlarga kelib Kushonlar podsholigi qudratli imperiyaga aylandi. Ularning tangalarida ham yunon alifbosidan foydalanish davom etdi. Grek xudolarining tasviri asta-sekin mahalliy, shu jumladan zardushtiylik xudolarining tasviri bilan almashtirildi. O'rta Osiyoda kushonlargacha va hatto ilk Kushonlar davrida ham kumush tanga zarb qilingan bo'lsa, Kushon podshosi Vima Kadfiz reforma o'tkazib, oltin tanga zarb qilishga asos soldi. Ko'plab oltin dinorlar va boshqa tangalar chiqarildi. Bu tangalar xalqaro savdoda muhim o'rin egallagan Rim oltinlariga yaqin turardi. Mis tangalar ham ko'plab zarb qilingan, faqat Surxondaryo vohasining kichik qishloq hududlarida Kushonlarning yuzlab mis tangalari topilganligi fikrimizning dalilidir. Milodning boshlarida bir tomonida podsho tasviri, ikkinchi tomonida yoychining rasmi aks ettirilgan So'g'd kumush tangalari paydo bo'la boshladi. Ularning vazni ancha yengil bo'lib, og'irligi 0.3 grammni tashkil etardi.

Milodning birinchi asrida Chochda ham tangalar zarb qilingan. Bu tangalarda toj kiygan podsho, ikkinchi tomonida esa so'g'd yozuvi bo'lgan o'ziga xos tamg'a tasvirlangan edi. Tangalarda qarab o'sha davrdagi ijtimoiy holatni aniqlash mumkinki, pul savdosi So'g'dga nisbatan Baqtriyada, Xorazm va Chochda biroz past darajada rivojlanganligini aniqlash mumkin. Farg'onadagi savdo muomalasida umuman tanga ishlatilmagan, shunga ko'ra bu o'lka aholisi umuman o'z tangasiga ega bo'lmagan deyish mumkin. Bu esa Farg'ona hududi iqtisodining rivojlanishi juda ham sust bo'lganidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi II asrda Xorazmda ham tanga zarb qilina boshlanadi. Dastlabki Xorazm tangalari Yevkratid tetradxarmalariga taqlid qilinib zarb etilgan yirik kumush tangalar bo'lib, asl nusxalaridan farqli o'laroq, yozuvlari xiralashgan, teskari tomonida o'ziga xos belgi tamg'a borligi bilan ajralib turadi. Keyinchalik o'ng tomonida Yevkratid tasviri mahalliy hukmdor surati bilan o'zgartiriladi va xiralashgan yunon yozuvlari bilan bir qatorda podshoning ismi va unvoni haqida ma'lumot beruvchi Xorazm tilidagi yozuvlar, tanganing ters tomonida esa suvoriyning tasviri paydo bo'ladi. Ba'zi bir tadqiqotchilar Beruniy ma'lumotiga asoslanib tangaga tasvirlangan siymo

xorazmshohlar sulolasining asoschisi suvoriy tangri Siyovush desa, boshqalar bu tasvirda oliy podsho – tangri berilgan, deb aytadilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qadimgi davr tangalari Markaziy Osiyodan topilgan nodir yodgorliklar bo'lib, ular savdoning qanday ahvoldaligini, ijtimoiy jarayonlarda yetakchi rol o'ynaganligini bilib olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xtayev I. Tangalar tilga kirganda. – Toshkent, 1989.
2. Эрназарова Т., Кочнев Б. Тангалар ўтмиш даракчилари. Фан. Т.; 1977
3. Rtveladze E.V. Buyuk Ipak yo'li. Ensiklopediya. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1999. – B.280.
4. Axmedshina Faniya Avzalovna, Ibragimov Iskandar Zafar o'g'li. Buyuk ipak yo'lidagi tangalar. Journal of new century innovations. 2024.